



**NAMANGAN VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**NAMANGAN  
VILOYATIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2023- YIL  
YANVAR-IYUN**



2023-yilning yanvar-iyun oyida, Namangan viloyatida jami **3228,1** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **103,0 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi: Yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




# 2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*



## Yillar kesimida soni



## Hududlar kesimida



822

Bino va inshootlar qurilishi

240

Fuqarolik obyektlarini qurilishi

562

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022- yil bilan solishtirganda 67,6 foizni tashkil etgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 50,6 foiz ulushi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 14,8 foiz ulushi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 34,6 foiz ulushni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.07.2022- y.	01.07.2023- y.	
<b>Namangan viloyati</b>	<b>2402</b>	<b>1624</b>	<b>67,6</b>

*tumanlar:*

<b>Mingbuloq</b>	79	60	75,9
<b>Kosonsoy</b>	259	165	63,7
<b>Namangan</b>	122	70	57,4
<b>Norin</b>	134	93	69,4
<b>Pop</b>	118	102	86,4
<b>To'raqo'rg'on</b>	106	70	66,0
<b>Uychi</b>	239	166	69,5
<b>Uchqo'rg'on</b>	172	127	73,8
<b>Chortoq</b>	176	108	61,4
<b>Chust</b>	171	121	70,8
<b>Yangiqo'rg'on</b>	104	82	78,8
<b>Namangan shahar</b>	722	460	63,7
shundan			
<b>Davlatobod</b>	204	132	64,7
<b>Yangi namangan</b>	161	112	69,6



# 2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Namangan sh.(28,3)



Uychi (10,2)



Kosonsoy (10,2)



- Namangan .shahar
- Minbuloq
- Kosonsoy
- Namangan
- Norin
- Pop
- To'raqo'rg'on
- Uychi
- Uchqo'rg'on
- Chortoq
- Chust
- Yangiqo'rg'on



## Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyun uchun


	Qurilish ishlari, mln. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Namangan viloyati tumanlar:</b>	<b>3228145,3</b>	<b>237641,9</b>	<b>2022040,7</b>	<b>968462,7</b>
<b>Mingbuloq</b>	104077,5	0,0	60822,9	43254,6
<b>Kosonsoy</b>	271987,6	53961,1	91069,0	126957,4
<b>Namangan</b>	233928,4	0,0	163934,2	69994,2
<b>Norin</b>	143118,5	0,0	69562,9	73555,6
<b>Pop</b>	172168,0	49537,7	75853,3	46777,1
<b>To'raqo'rg'on</b>	174886,0	14860,0	102237,2	57788,8
<b>Uychi</b>	370038,0	41490,2	266575,3	61972,5
<b>Uchqo'rg'on</b>	246840,9	0,0	145504,3	101336,6
<b>Chortoq</b>	222924,5	0,0	146881,6	76042,9
<b>Chust</b>	178168,6	0,0	84303,1	93865,5
<b>Yangiqo'rg'on</b>	163600,5	0,0	80473,0	83127,5
<b>Namangan sh. shundan</b>	<b>946406,8</b>	<b>77792,9</b>	<b>734823,9</b>	<b>133790,0</b>
<b>Davlatobod</b>	347907,1	0,0	313230,6	34676,5
<b>Yangi Namangan</b>	209475,1	23524,3	130623,7	55327,2


2023- yilning yanvar-iyun oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 237641,9 mln. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 105,2 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 0,1 % punktga ko'payib 7,4 % ni tashkil etdi.

# Qurilish ishlari 2023- yil yanvar- iyun uchun



**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.





**MA'LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Pop tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 28,8 %) ga to'g'ri keldi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 62,6 % i to'g'ri kelib, 2022- yil ko'rsatkichiga nisbatan 1,4 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 102,3 % ni tashkil etgan holda 2022040,7 mln. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



62,6

2023- yil yanvar-iyun

64,1

2022- yil yanvar-iyun




**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Namangan shahri (734823,9 mln. so'm hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 77,6 %), Uychi tumani (266575,3 mln. so'm yoki 72,0 %), Chortoq tumani (163934,2 mln. so'm yoki 70,1 %)ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **30,0 %** ni tashkil etdi yoki **968462,7 mln. so'm** miqdorida qayd etildi. 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **104,0 %** ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 105741,4 mln. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 3122403,9 mln. so'm qurilish ishlari bajarildi.



# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi 2023- yil yanvar-iyun oylarida



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **76,8 %** yoki **2478577,5** mln. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**9,6 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 237641,9 mln. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **9,6 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 1332023,3 mln. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **53,7 %** ni tashkil etdi

**53,7 %**

**36,7 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **908912,3** mln. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **36,7 %** ni tashkil etdi.



# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyun oylarida

	Qurilish ishlari, mln. so'm	o'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish
<b>Namangan viloyati</b>	<b>3228145,3</b>	<b>103,0</b>	<b>2478577,4</b>
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	104077,5	119,9	76835,9
Kosonsoy	271987,6	109	203243,3
Namangan	233928,4	100,1	200764,8
Norin	143118,5	110,2	138800,3
Pop	172168,0	76,4	133843,2
To'raqo'rg'on	174886	100,1	131364,6
Uychi	370038	98,4	262729,2
Uchqo'rg'on	246840,9	108	183414,7
Chortoq	222924,5	98,1	175979
Chust	178168,6	98,7	141278,9
Yangiqo'rg'on	163600,5	110,3	121450,4
<b>Namangan shahri shundan</b>	<b>946406,8</b>	<b>108,3</b>	<b>708873,1</b>
Davlatobod	347907,1	102,3	242900,6
Yangi Namangan	209475,1	90,9	133843,2


*\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda*



**Ma'lumot uchun:** Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.



# Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



*Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 4,2 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4 % punktga kamaygan.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,7 % punktga kamayib, 53,8 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,1 % punktga ko'payib, 42,0 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 36,8 % ni tashkil etdi va 2022- yilga nisbatan 20,0 % punktga ko'paygan.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 63,2 % (20,0% punktga kamaygan) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi (0,0% punktga kamaygan).

## ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

Norasmiy sektor

2022- yil yanvar-iyun

2023- yil yanvar-iyun



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilga nisbatan 8,0 % punktga kamaygan va 4,9 % ni tashkil etdi. Qolgan 95,1 % ni kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilga nisbatan 8,0 % punktga ko'paygan.

ulushi % da

12,9

2022- yil  
yanvar-iyun

2022- yil  
yanvar-iyun

87,1

4,9

2023- yil  
yanvar-iyun

2023- yil  
yanvar-iyun

95,1

Yirik qurilish  
tashkilotlari  
ulushi

Kichik korxonalar va  
mikrofirmalar  
ulushi



# Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyunda



	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so'm	o'sish sur'ati, % da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>1 071,4</b>	<b>100,7</b>
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	772,7	117,3
Kosonsoy	1 215,3	106,6
Namangan	1 236,4	97,8
Norin	826,3	108,1
Pop	741,1	75,0
To'raqo'rg'on	726,3	97,7
Uychi	1 620,8	96,3
Uchqo'rg'on	1 352,6	105,8
Chortoq	1 055,5	96,1
Chust	634,1	96,8
Yangiqo'rg'on	701,2	107,7
<b>Namangan shahri</b>	<b>1 386,5</b>	<b>105,5</b>

# Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyunda



Hududlar kesimida 2023- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Uychi tumani – 1620,8 ming so'm yoki, 2022- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 96,3 %, undan keyin mos ravishda Namangan shahar – 1386,5 ming so'm (yoki 105,5 %), Uchqo'rg'on tumani – 1352,6 ming so'm (yoki 105,8 %) tumanlari egalladi.

**Namangan viloyati Investitsiyalar va  
qurilish statistikasi  
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(69) 227-84-85**